

## AYOLLAR VA BOLALAR IJTMOIY DEMOGRAFIK GURUHINING XUSUSIYATLARI

*Egamberdiyev Oyatillox Alisher o‘g‘li*  
*FarDU magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ijtmoy demografik guruhlar haqida ma'lumot hamda ijtmoy demografik guruhning katta xususiyatlari haqida ma'lumot berilib, ularning ayollar va bollardasi xususiyatlari haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

**Abstract:** In this article, information about socio-demographic groups and major characteristics of socio-demographic groups is given, and extensive information is given about the characteristics of women and their children.

**Аннотация:** В этой статье дана информация о социально-демографических группах и основных характеристиках социально-демографических групп, а также дана обширная информация о характеристиках женщин и их детей.

**Kalit so'zlar:** demografiya, muhofaza, ahamiyat, rivojlantirish, muammo, qamrovli, chora tadbbir.

**Key words:** demography, protection, importance, development, problem, comprehensive, measures

**Ключевые слова:** демография, защита, важность, развитие, проблема, комплексные, меры.

Ona va bola muhofazasi O'zbekiston Respublikasi yurtboshisi va jamiyat a'zolari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Islom dinida ham ayollar va bolalarning muhofazasi, ularning qadr-qimmati yuksak hisoblanadi. Shuning uchun, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng oila, onalar va bolalarga qaratilgan keng qamrovli choratadbirlar ko'zda tutilgan dasturlar ishlab chiqilgan. 1998-yildan buyon Toshkentda "Oila" ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsata boshladi; bu markazda O'zbekistonda oilani shakllantirish va demografik rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan keng tarmoqli ishlar olib boriladi. Davlat tomonidan yosh bolali onalar ish soatlari cheklanadi, ularga to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, shuningdek, zaruriyatdan kelib chiqib o'zlariga qulay soatlarda yoki uyda ishslash imkoniyatlari beriladi. Har bir ona va bola sog'lig'ini kuzatish, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish ham davlat zimmasida hisoblanadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tomonidan maktabgacha ta'lim, maktab, internat maktab, bolalarni sog'lomlashtirish komplekslari kabi xilma-xil tarmoqlar rivojlantirilmoqda.

Oila, onalar va bolalarni muhofaza qilish 2 asosiy bo‘limni: akusherlik-ginekologiya (tug‘ishga yordam berish) va bolalarga davolash-profilaktika yordами ko‘rsatishni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Akusherlik-ginekologiya yordamini maxsus muassasalar, xususan, shaharda tug‘ruqxonalar, shuningdek, tarkibida ayollar maslahatxonasi bo‘lgan tug‘ruqxonalar komplekslari, kasalxonalarning akusherlik-ginekologiya bo‘limlari, akusherlik va ginekologiya instituti, tibbiyot institutlari, akusherlik-ginekologiya kafedrasi tarkibidagi shu soha bo‘limlari, ayollar maslahatxonasi, poliklinika va ishlab chiqarish korxonalari tibbiysanitariya qismi qoshidagi akusherlik-ginekologiya kabinetlari amalga oshiradi. Qishloq joylarda ayollarga akusherlik-ginekologiya yordamini viloyat, tuman kasalxonalarining tug‘ruqxonalar bo‘limlari, ambulatoriyasi, feldsherakusherlik punktlari va poliklinikadagi akusherlik-ginekologiya kabinetlari ko‘rsatadi.

Ayollar maslahatxonasi o‘z hududidagi poliklinika, homiladorlarni sog‘lomlashtirish muassasalarini, “Ona va bola skrining” markazi va perinatal markazlar, tibbiy-genetik, shuningdek, "Nikoh va oila" maslahatxonalarini, oilaviy va bolalar poliklinikalarini, ko‘p tarmoqli kasalxonalarning ixtisoslashtirilgan bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi.

Oila, onalar va bolalarni muhofaza qilish tizimida davolash-profilaktika yordamining bir nechta bosqichlari mavjud:

1-bosqich — yoshlarni jinsiy masalalarga tayyorlash, sog‘lom oila qurish, jinsiy hayot genetikasi va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan kasallikkardan boxabar etish bo‘yicha yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni "Oila va nikoh" ilmiy maslahatxonalarini amalga oshiradi.

2-bosqich — homilani antenatal muhofazalash kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish ayollar maslahatxonasi, tug‘ruqxonalar komplekslari va boshqalari faoliyatiga kiradi.

3-bosqich — tug‘ishni bekamu-ko‘st olib boorish uchun homilani instituteranatal muxofazalash — bu tug‘ruqxonalar zimmasiga yuklatilgan.

4-bosqich — yangi tug‘ilgan chaqaloq sog‘lig‘ini himoya etish, uni emizish, umumiy holati, fiziologik rivojlanishini nazorat qilish va boshqa tug‘ruqxonalarning chaqaloqlar bo‘limida ko‘zdan kechirib boriladi.

5-bosqich — maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish.

6-bosqich — maktab yoshidagi bolalar sog‘lig‘igini himoya qilish. Bularninghammasi O‘zbekiston Respublikasida yo‘lga qo‘yilgan yagona Oila, onalar va bolalar muhofaza qilish tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan Akusherlik va ginekologiya instituti, Pediatriya instituti, "Ona va bola" kasalxonasi va markazlari, shuningdek, shu sohaga oid qator davolash-profilaktika muassasalarida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning

muhim mezonlaridan biri – bu aholining mehnatga faolligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatga layoqatli aholining salmog‘idir.

Demografik jarayonlardagi, aholining jinsiy-yosh tarkibi va oilaning katta-kichikligi, aholi harakatidagi, shuningdek, mehnat malakasidagi, xo‘jalik yuritish shakllari va aholining hamda aholi manzilgohlarining joylashuvlagi muhim hududiy tafovutlar millatlarning moddiy va ma’naviy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyat taraqqiyoti davomida tug‘ilish tarixiy davrlar va hududlar bo‘yicha muntazam o‘zgarib kelgan. Ko‘pbolalik jamiyat davlat tomonidan ham qollabquwatlangan. Eng awal oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Hatto ba’zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishslash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘lgan. Har bir oila a’zosining sog’lom bo‘lishi, yangi tug‘ilgan farzandning sog’ va salomat katta bo‘lishi qanchalik muhim iqtisodiy hamda ma’naviy masala ekanligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Hukumatimiz rahbari tomonidan Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog’lom avlodni shakllantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog’lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari mamlakatimizda oilalarning ijtimoiy barqarorligi, farovonligi yo’lida olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirdi.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, oilaning tinchligi jamiyat va davlatning barqarorligi, onalik va bolalik avlodlar bardavomligining muhim omilidir. Mustaqillik tufayli ular yangicha ma’nomazmun kasb etdi. Bunda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yaratish, onalar va bolalar huquqlarini kafolatlash, oilalar barqarorligini ta’minalashga erishishga alohida e’tibor qaratildi. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilingani, “Sog’lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilgani, BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi ratifikatsiya qilingani ham oila, onalik va bolalik muhofazasini yanada kuchaytirdi. Konferensiyada “Sog’lom ona va bola yili” Davlat dasturida ko‘zda tutilgan vazifalar va ularning ijrosiga alohida e’tibor qaratildi. Oila, onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha shakllangan huquqiyeme’yoriy ba’zani takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etildi. Bo‘lajak kelin-kuyovlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha mas’uliyatni kuchaytirish, erta turmushga chiqish holatlarining oldini olish, qizlarning kasbhunarga ega bo‘lib, hayotni anglab turmush qurishi uchun sharoit yaratish dolzarb ahamiyatga ega, shundagina ular hayotda o‘zining munosib o‘rnini topadi, jamiyatimizning faol a’zosiga aylanadi, ertaga u quradigan oila ham mustahkam bo‘ladi. Bunday ezgu niyatni amalga tatbiq etish

yo‘lida davlat va jamoat tashkilotlari, xususan, mahalla, xotin-qizlar, nuroniyalar, yoshlar tashkilotlari o‘rtasida hamkorlik mustahkamlanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Toshkent davlat yuridik universitetida “O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning konseptual masalalari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiyasi <https://uzbekistan.lv/uz/oila-onalik-va-bolalik-davlat-muhofazasida/> 4. Xakimovna X. X. et al. Public health reforms in the republic of Uzbekistan //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2021. – T. 8. – №.
2. – C. 820-826. 5. Dustova G. K., Kurbanov A. A., Kurbonov K. R. Measures taken to prevent coronavirus infection in Samarkand region //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 102-105.
3. Onalik va bolalik – Davlat muhofazasida
4. <https://kun.uz/uz/news/2016/08/17/onalik-va-bolalik-davlat-muofazasida> Ona va bola salomatligi | UNICEF O‘zbekiston <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/ona-vabola-salomatligi>
5. N.K.Komilova Sh.Z.Jumaxanov F.T.Rajabov: Inson geografiyasi. Toshkent «Universitet» 2018 .91-b
6. A.Soliyev: O‘zbekiston iqtisodiy –ijtimoiy geografiyasi. Toshkent – 2014 . 31-b  
5.Abdullaev U. Valixonova G: Farg‘ona vodiysi aholisi: Etnik tarkibining shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi. T.:, Navroz, 2016. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://stat.uz/>
7. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7)*.
8. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
9. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
10. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences, 1(3)*, 162-165.
11. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences, 1(3)*, 166-169.
12. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF

CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.

13. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
14. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
15. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.
16. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. *The Peerian Journal*, 5, 192-194.
17. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.